

IX. KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish, ularning faoliyati uchun qulay muhit yaratish borasida amalga oshirilayotgan tadbirlar 2024- yilning 1-aprel holatiga 15 807 ta kichik biznes subyektlarini (dehqon va fermer xo'jaliklarisiz) tashkil etish imkonini berdi. (2023 yilning shu davriga nisbatan 90,7 foizni tashkil qildi).



Yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari sonining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi 2024- yilning yanvar-mart holatiga (jamiga nisbatan foizda) (dehqon va fermer xo'jaliklarisiz)

2022-yil




2024- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining **YaHM**dagi ulushi 65,6 foizni tashkil etdi.


Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har **1 000** aholiga 10,4 birlikni tashkil qildi.

2024-yilning yanvar-mart holatiga 1 114 ta kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 108,1 foizga ko'p demakdir.

2023-yil



2024-yil





Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi

Eng ko‘p kichik biznes subyektlari savdo (jami tashkil etilgan subyektlarning 28,8 %), sanoat sohasida (28,7 %), qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi tarmog‘ida (20,6 %), qurilishda (3,7 %) va boshqalar (18,2 %) tashkil etilgan.

2024- yilning yanvar-mart oylarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan:


- investitsiyalar hajmi 3 433,9 mlrd. so‘mlik (umumiyligi investitsiyalar hajmidagi ulushi 74,7 %) o‘zlashtirildi va 2023 yilning yanvar-martiga nisbatan 2,1 martaga o‘sdi;
- qurilish ishlari hajmi 7 702,0 mlrd. so‘mni (qurilish ishlari umumiyligi hajmidagi ulushi 93,4 %) va 2023 yilning yanvar-martiga nisbatan o‘sish sur’ati 114,1 foizni tashkil qildi;
- sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 1 092,3 mlrd. so‘mni (jami sanoat ishlab chiqarishining ulushi 22,3 %) tashkil qildi;
- xizmatlar hajmi 1 776,3 mlrd. so‘mlik ko‘rsatilib (jami xizmatlar hajmidagi ulushi 63,2 %) 2023 yilning yanvar-martiga nisbatan o‘sish sur’ati 113,7 foizni tashkil qildi;
- chakana tovar aylanmasi 2 115,6 mlrd. so‘mni (jami chakana tovar aylanmasining 95,7 %) 2023 yilning yanvar-martiga nisbatan o‘sish sur’ati 107,7 foizni tashkil qildi;
- tovarlar eksport hajmi 25,1 mln. AQSH dollari (umumiyligi eksport hajmining 53,5 %) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksport qilindi, tovarlar import hajmi 253,9 mln. AQSH dollari (umumiyligi import hajmining 57,0 %) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) import qilindi;
- avtomobil transportida 8,1 ming tonna yuk tashilib (jami avtomobil transporti yuk tashishdagi ulushi 93,8 %) 2023 yilning yanvar-martiga nisbatan o‘sish sur’ati 99,1 foizni tashkil qildi;
- avtomobil transportida 20,7 ming yo‘lovchi tashilib (umumiyligi yo‘lovchi tashishdagi ulushi 95,3 %) 2023 yilning yanvar-martiga nisbatan o‘sish sur’ati 103,0 foizni tashkil qildi;

2024- yilning yanvar-martida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YaHMdagisi – 65,6 foizni, sanoatda – 22,3 foizni, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida – 98,3 foizni, qurilishda – 93,4 foizni, eksportda – 53,5 foizni tashkil qilgan.




**Viloyat bo‘yicha kichik tadbirkorlikda sanoat mahsulotlarini
ishlab chiqarish bo‘yicha asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari
(umumiy hajmiga nisbatan mlrd. so‘mda)**

**2024- yil yanvar-mart oylarida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik
(biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi**



Jizzax viloyati bo‘yicha eng ko‘p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Jizzax shahri (396,3 mlrd. so‘m), Sharof Rashidov (149,3 mlrd. so‘m) va Forish (141,6 mlrd. so‘m) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keldi.

**2024- yil yanvar-mart oylarida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik
(biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va o‘sish sur‘ati**



Jizzax viloyati bo‘yicha eng ko‘p xizmatlar hajmi Jizzax shahri (574,7 mlrd. so‘m), Sharof Rashidov (310,6 mlrd. so‘m), G’allaorol (171,4 mlrd. so‘m) va Zomin (154,3 mlrd. so‘m) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keldi.



2024- yil yanvar-mart oylarida iqtisodiy ko‘rsatkichlarda kichik tadbirkorlikning hududlar bo‘yicha ulushi, % da

| | Sanoat | Qurilish | Xizmatlar | Qishloq xo‘jaligi |
|--|--------|----------|-----------|-------------------|
|--|--------|----------|-----------|-------------------|

| | | | | |
|------------------------|-------------|-------------|-------------|-------------|
| Jizzax viloyati | 22,3 | 93,4 | 63,2 | 98,3 |
|------------------------|-------------|-------------|-------------|-------------|

shahar:

| | | | | |
|---------------|-------------|-------------|-------------|-------------|
| Jizzax | 45,4 | 93,9 | 46,6 | 93,9 |
|---------------|-------------|-------------|-------------|-------------|

tumanlar:

| | | | | |
|-----------------|--------------|-------------|-------------|-------------|
| Arnasoy | 100,0 | 90,8 | 70,1 | 99,7 |
| Baxmal | 100,0 | 94,7 | 77,9 | 99,8 |
| G‘allaorol | 0,9 | 90,1 | 74,5 | 97,8 |
| Sharof Rashidov | 99,9 | 100,0 | 83,1 | 98,9 |
| Do‘stlik | 18,8 | 89,5 | 75,5 | 99,3 |
| Zomin | 38,6 | 88,4 | 72,8 | 98,3 |
| Zarbdor | 28,0 | 93,9 | 72,3 | 95,5 |
| Zafarobod | 15,6 | 66,5 | 71,6 | 97,0 |
| Mirzacho‘l | 100,0 | 91,4 | 61,7 | 98,7 |
| Paxtakor | 36,6 | 97,7 | 72,8 | 99,2 |
| Forish | 99,7 | 90,3 | 76,6 | 96,7 |
| Yangiobod | 100,0 | 86,1 | 85,1 | 99,6 |

Joriy yilning yanvar-mart oylarida viloyatda kichik tadbirkorlikning iqtisodiy ko‘rsatkichlari sohalar bo‘yicha tahlil qilinganida:

- sanoat tarmog‘ida kichik tadbirkorlik Zafarobod (15,6 %), G‘allaorol (0,9 %) tumanlarida kam, Arnasoy, Baxmal (100,0 %), Yangiobod (100,0 %), Mirzacho‘l (100,0 %) tumanlarida yuqori ulushni tashkil etadi.

- qurilish tarmog‘ida kichik tadbirkorlik ulushi viloyatga nisbatan Zafarobod tumanida (66,5 %), Yangiobod tumanida (86,1 %) kam foizni qolgan tumanlarda esa yuqori o‘ringa ega.

- xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik ulushi Jizzax shahrida (46,6 %), Mirzacho‘l tumani (61,7 %) qolgan hududlarga nisbatan kam bo‘lishiga qaramasdan, hajimi jihatidan qolgan hududlardan yuqori o‘ringa ega.

- qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida viloyat miqyosida yaratiladigan qo‘srimcha qiymatning barchasi kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshiriladi.